

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

Filologiya va ijtimoiy fanlar yo'nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Kadrlar siyosati va davlat xizmatining samaradorligini baholash va rivojlantirishning milliy modelini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: – Mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilish; – Kadrlar siyosati va davlat xizmati samaradorligiga oid nazariy yondashuvlar o'rganish; – O'zbekistondagi amaldagi kadrlar siyosati va davlat xizmatini baholash amaliyotini o'rganish; – Idoraviy tahlillar, so'rovnomalar, intervyular va fokus-gruppalar orqali ma'lumot to'plash asosida davlat tashkilotlarining kadrlar xizmatlari uchun maxsus o'quv dasturini ishlab chiqish; – Kadrlar siyosatini shakllantirish, baholash va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish asosida ilmiy asoslangan "milliy model" loyihasini ishlab chiqish; – Yaratilgan modelni alohida idoralarda sinovdan o'tkazish orqali modelni takomillashtirish; – "Kadrlar siyosati samaradorligini baholash to'g'risida"gi milliy metodologiya va reglamentlar ishlab chiqish; – xalqaro ilmiy tadbirlar tashkil etish orqali ilmiy laboratoriyalarni shakllantirish; – Kadrlarni baholash va rivojlantirish uchun elektron baholash tizimini (E-Assessment Platform) yaratish, tizimda AI asosida shaxsiy kompetensiyalar monitoringi, karyera trayektoriyasi tahlili, o'qitish ehtiyojlarini aniqlash. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Boshqaruv samaradorligi agentligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Boshqaruv samaradorligi agentligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma'lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Boshqaruv samaradorligi agentligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.